

SHUKUR XOLMIRZAYEV HIKOYALARIDA METAFORALARNING IFODALANISHI

Ergashova Marjona

Termiz davlat universiteti o'zbek filologiyasi fakulteti 2- bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada metaforalarning ifodalanishi, Shukur Xolmirzayevning " O'lis yulduzlar ostida", "Tabassum", " O'zbekning soddasi ", " O'zbeklar "va boshqa hikoyalarida qo'llangan metafora lingvistik tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *Metafora., ko'chma ma'no, nutqiy metaforalar, ShukurXolmirzayevning " O'lis yulduzlar ostida", "Tabassum", " O'zbekning soddasi ", " O'zbeklar "hikoyalari.*

Abstract: *In this article, the expression of metaphors, metaphors used in Shukur Kholmirzayev's stories "Under the distant stars", "Smile", "Uzbek's simple", "Uzbeklar" and other stories are analyzed linguistically.*

Keywords: *Metaphor., figurative meaning, speech metaphors, ShukurKholmirzayev's stories "Under the distant stars", "Smile", "Uzbek's simple", "Uzbeklar".*

Абстрактный: *В данной статье лингвистически анализируется выражение метафор, метафоры, использованные в рассказах Шукура Холмирзаева «Под звездами далекими», «Улыбка», «По-узбекски просто», «Узбеклар» и других рассказах.*

Ключевые слова: *Метафора., переносное значение, речевые метафоры, рассказы Шукура Холмирзаева «Под звездами далекими», «Улыбка», «По-узбекски просто», «Узбеклар».*

Bugungi kunda taraqqiyot o'zbek tilshunosligidan aniqlangan lisoniy imkoniyatlarining nutqiy voqelanishini tekshirishni talab qilmoqda. Til birliklarining qo'llanish imkoniyati, xususiyatlari orqali yangidan yangi so'zlar hosil qilinib, so'z ma'nosining o'zgarishi tufayli tildagi so'zlar soni ko'payadi. So'z til birligi sifatida, ayrim olinganda biror konkret ma'noni bildirsa, nutq birligi sifatida gapda yana boshqa ma'nolarni ham bildirishi mumkin. Natijada so'z ma'nosining torayishi, kengayishi, o'zgarishi yuz beradi va so'zning quyidagicha ma'nolari hosil bo'ladi: bosh m a'no va yasama ma'no, to'g'ri ma'no va ko'chma ma'no, ,nominativ ma'no va majoziy ma'no. So'z ma'nolarini bu xilda guruhlash ayni bir hodisaga turli nuqtayi nazardan qarash oqibatidir, shuning uchun ular o'zaro teng kelib qolishi mumkin.

So'zning dastlabki, asosiy, birlamchi, boshqa bir leksik boshqa bir leksik ma'nosining kelib chiqishi uchun asos bo'lgan ma'nosi bosh ma'no deyiladi. Shu bosh m a'noning taraqqiyoti asosida kelib chiqqan m a'no yasama ma'nn deyiladi Masalan, bosh so'zining bosh ma'nosi tananing yuqori, bosh qismi, biologik a'zo nomini bildirishdir. Shu so'z asosida tuzilgan ariqning boshi, xirmon boshi, janjalning boshi, har ishda bosh-qosh, boshi ochiq, bosh boia kabilar anglatgan m a'no yasama ma'nodir¹.

Metafora so'zi yunoncha bo'lib, ko'chirish degan ma'noni bildiradi. Ikki predmetning belgisi yoki harakati nomini o'zaro o'xshashlik asosida birinchisidan ikkinchisiga

ko'chirishga metafora deyiladi. Bunda predmetlarning rangi, shakli, harakat-holati, xarakteri, o'zmi va paytga

munosabati jihatidan o'xshashligiga asoslaniladi. Metafora ko'proq odamning tana a'zolari nomlariga, kiyim qismlariga, hayvon, parranda hamda hasharotlarning biror a'zosi nomiga o'xshatilishga asoslanadi. Masalan: koyiakningyoqasi — daryoning yoqasi. Metafora hosila semema hosil qilishning keng tarqalgan usuli sifatida badiiy uslubning, nutqning eng muhim vosilataridan hisoblanadi². Metafora ko'proq quyidagilar:

1. Odam tana azolariga (qo'l, oyoq, yuz, lab, tish, yelka).
2. Kiyimlar va ularning biror qismiga (yoqa, etak).
3. Hayvon, parranda va hashorotlarning biror azosi (qanot, dum, tumshuq, shox).
4. O'simlik va uning qismi (ildiz, tomir).
5. Qurollar (nayza, pichoq).

Masalan: Tog'ning etagidagi uy. Uyimiz daryo yoqasida.

Surxon vohasidan yetishib chiqqan mahoratli yozuvchiardan biri Shukur Xolmirzayevdir. U o'z asarlarida metaforalarning ajoyib namunalarini yaratgan. Xususan, uning "Olis yulduzlar ostida" hikoyasida:

Hov, boy bobo! — deb chaqirdim. Javob bo'lmadi. Yana chaqirgandim, o'tovdan o'n yoshlardagi bir bola chiqib, tom labiga keldi, qo'lini tizzasiga tirab, menga qaradi. Ushbu parchadagi "tom labi" birikmasi metaforani ifodalagan, chunki inson tana a'zosining nomi boshqa predmetga ko'chishi orqali hosil qilingan. Hikoyaning boshqa qismida:

Tom ustiga egilib turgan tog'olchanning qip-qizil mevalari va yaproqlarida o't shu'lasini o'ynay boshladi. Bostirma biqinida o't yonardi, - degan parcha mavjud, bu yerda ham insonning tana a'zosining nomi boshqa predmet nomiga ko'chirilgan, ya'ni bostirmaning biqini "so'zidagi buqin so'zi metafora vazifasini o'tagan.

"O'zbekning soddasi" hikoyasida:

O'shanda sakkiz yoshlarda edim. Ikkinchi sinfda o'qiyotgan bo'lsam ham zehnim o'tkir ekanmi, savodim chiqib qolgan, ya'ni otam aytib tursa, men fakturasini yozib borardim. Otam rayon matlubot jamiyatida magazinchi, bir nima bo'lib ishlar edi, - deya parcha keltirgan, ushbu gapdagi "zehnim o'tkir" birikmasi ko'chma ma'noda qo'llangan, belgi o'xshashligi asosida metaforani ifodalagan. Aslida, o'tkir so'zi o'z ma'nosida biror narsaning belgisini bildiradi, masalan, pichoq o'tkir edi- gapida o'z ma'nosida qo'llangan. Hikoyaning davomida:

"Dashtdan otamning oshnalari kepti deb o'ylagan edim. Yo'q, lampa yoritib turgan dasturxonning bir tomonida matlubot jamiyatining raisi cho'kka tushib o'tirar, u otam bilan kulishar edi. Enam o'choq boshida, - deb davom etilgan bu yerda ham nutqiy metaforaning o'zgacha namunasi qo'llangan. "O'choq boshida" birikmasidan muallif badiiy maqsadda foydalanib, metaforani ifodalagan. Bosh- inson tana a'zosining bir qismini yoki biror ishning boshlanishini bildiradi, bu parchada esa o'choqning boshi, ya'ni oldi ma'nosida qo'llanib, metafora vazifasini bajargan. Shukur Xolmirzayevning "Bandi burgut" hikoyasida:

"Qishloq biz turgan yerdan uch chaqirimlar etakda edi, Loy kechib jo'nadik", - degan ajoyib parchani qo'llagan. Ushbu parchadagi etak so'zi tog'ning etak qismi ma'nosida qo'llanib metaforani ifodalagan. Etak so'zi o'z ma'nosida har xil narsalar, buyumlar

solinadigan matodan tikilgan xalta yoki inson kiyimining pastki qismi ma'nosini bildiradi. Bu yerda inson kiyimining pastki qismi ma'nosiga o'xshatilganligi uchun metafora vazifasini bajargan.

Muallifning " O'zbeklar " hikoyasida: " Ertasi ko'zimiz charaqlab ochilib, terimga chiqib ketdik", -nomli parcha mavjud bo'lib, undagi ko'zning charaqlab ochilishi orqali metafora hosil qilingan, harakat o'xshashligi, ya'ni quyosh charaqlab nur sochadi, insonning ko'zi esa bunday xususiyatlarga ega emas.

Badiiy adabiyotning asosiy quroli so'z bo'lib, uning to'g'ri ma'noda qo'llanishi yoki ko'chma ma'noda ishlatilishi tilshunoslikda muhim. Badiiy matnda qo'llangan metaforalar asarning ta'sirchan va ekspressivligi uchun xizmat qiladi. Asarlarda meraforalardan unumli va to'g'ri foydalanish uslubiy jihatdan katta ahamiyat kasb etadi. Shukur Xolmirzayevning asarlarida qo'llangan metaforalar Surxon vohasi va undagi xalqning turmush tarzi, yashash sharoitiga qarab tanlangan. Bu esa muallifning naqadar katra mahoratga ega ekanligini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.R.Sayfullayeva, B. Mengliyev va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. - Toshkent. 2010
- 2.B.Mengliyev.Hozirgi o'zbek tili. - Toshkent. 2018.
- 3.M.Mirtojiyev.O'zbek tili semasiologiyasi. - Toshkent. 2010.
- 4.M.Yo'ldoshev.Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi. - Toshkent. 2009.
5. W. W. W. Ziyouz. com